



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O'ZBEKİSTONNING YUQORI TEKNOLOGİYALI VA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN TARMOQLARIĞA TO'G'RIDAN TO'G'RI XORİJIY INVESTİTSİYALARNI JALB ETISH

Mamatkulova Nodira Maxkamovna,
TAQU, "Menejment" kafedrası dotsenti
Телефон: +998909947982
2025nodi@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan joriy tendensiyalar va strategiyalar, shuningdek, xorijiy investitsiyalarни rag'batlantirishda davlat tashabbuslarining roli baholanadi. Muvaffaqiyatli misollar va investorlar uchun potentsial to'siqlar tahlil qilinib, O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, yuqori texnologiyalar, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar, O'zbekiston Respublikasi, investitsiya muhiti.

Abstract. The article examines the importance of attracting foreign direct investments (FDI) in high-tech and export-oriented industries in the Republic of Uzbekistan. It evaluates current trends and strategies aimed at improving the investment climate, as well as the role of government initiatives in stimulating foreign investments. Successful examples and potential obstacles for investors are analyzed, and recommendations for enhancing conditions for FDI in Uzbekistan are proposed.

Keywords. Foreign direct investments, high technology, export-oriented industries, Republic of Uzbekistan, investment climate.

Bugungi kunda jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotni, ayniqsa, yuqori texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar kabi sohalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirayotgan va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga intilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu sohalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha ma'lumotlar tahlili keltirilgan, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nafaqat kapital oqimiga, balki texnologiyalar transferi, infratuzilmani rivojlantirish, eksportni ko'paytirish va ish o'rinalarini yaratishga ham hissa qo'shadi. Iqtisodiyoti azaldan xomashyo qazib olish va qayta ishlashga asoslangan O'zbekiston uchun yuqori texnologiyali tarmoqlarga sarmoya kiritish va yuqori





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



qo'shimcha qiymatga ega ishlab chiqarish jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 84,3 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 196,4 foizga yetdi.

2024-yil davomida mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof oqimi 2023-yilga nisbatan 32 foizga oshib, 2,8 milliard dollarni tashkil etdi.

Chirchiq shahrida joylashgan industrial texnopark hududida "Ikki hudud - bir park" maxsus sanoat zonasini tashkil etilmoqda. U Xitoyning China Construction Fifth Engineering Division Corp va BSM Group Limited kompaniyalari hamkorligida tashkil etiladi.

Bu yerda elektrotexnika, to'qimachilik va qurilish materiallari, maxsus texnika ishlab chiqaradigan 20 ga yaqin yangi korxona, farmatsevtika tarmog'ida ishlaydigan zavodlar barpo etish rejalashtirilgan. Dastlabki korxonalar 2026-yilda o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshlaydi. Loyihaning dastlabki ikki bosqichini amalga oshirish uchun 200 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yo'naltirilishi, mingdan ortiq yangi ish o'rinnari yaratilishi kutilmoqda⁶⁸.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va strategik tashabbuslarni hisobga olgan holda, yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbollari samarali ko'rindi.

Xususan, elektronika va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Yangi hayot" industrial parki kabi yangi maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish qo'shimcha investitsiyalarni jalb etishi lozim.

"Yangihayot" industrial texnoparki O'zbekiston prezidentining 2021-yil 4-fevraldagagi PQ-4979-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Texnopark Toshkent shahrining sanoat va eksport salohiyatini oshirish, yangi turdagini raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shu asosda aholini yuqori daromadli ish o'rinnari bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Texnoparkning umumiy maydoni 210 hektar.⁶⁹

Bundan tashqari, davlat raqamli transformatsiya va "yashil" texnologiyalarni rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlamoqda, bu esa xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi proqnozlariga ko'ra, yuqori texnologiyali tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi kelgusi besh yil ichida 25-30 foizga oshishi mumkin.

Yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish uchun:

⁶⁸ <https://uznews.uz/uz/news/77325>

⁶⁹ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/07/14/yangihayot/>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



- Transport va raqamli tarmoqqa alohida e'tibor qaratgan holda infratuzilmani yaxshilashni davom ettirish.
- Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va huquqni qo'llash amaliyotining shaffofligini ta'minlash.
- Yuqori texnologiyali tarmoqlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda professional ta'lif va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish.
- Innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi investorlar uchun qo'shimcha soliq va moliyaviy imtiyozlar berish.
- Xalqaro investitsiya forumlarida O'zbekistonni faol targ'ib qilish va yetakchi texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

Yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Haqiqiy statistik ma'lumotlar ijobjiy dinamikani ko'rsatmoqda, ammo barqaror o'sishga erishish uchun mavjud to'siqlarni yengib o'tish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Ushbu vazifalarni hal etishga kompleks yondashuv O'zbekistonga jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallash va uzoq muddatli taraqqiyotni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiyalar va tashqi savdo sohalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019yil 28 yanvardagi PF-5643-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar. – <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yil uchun yillik hisobot. – https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf
5. *Foreign direct investment, net inflows* (BoP, current US\$) - Uzbekistan from The World Bank. – <https://data360.worldbank.org/en/economies>
6. UN Trade and Development (UNCTAD). Investment Policy Review of Uzbekistan. – <https://investmentpolicy.unctad.org/publications/69/investment-policy-review-of-uzbekistan>

